

LEKSIK BIRLIKLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Maxfuza Rajabovna Safarova

Buxoro viloyati Buxoro tuman 17-umumiy
o'rta ta'lim maktabi oily toifali o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada leksik birliklarning semantik xususiyatlari, ya'ni gradunomik, giponomik, partonomik munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari haqida fikrlar yuritilgan.

Kalit so'zlar: gradunomik, giponomik, partonomik, leksik ma'no, lisoniy, g'ayrilisoniy.

Leksik ma'no birliklari tilshunosligimizda turli semantik munosabatlar asosida har xil paradigmalar hosil qilgan holda mavjud bo'ladi. Gradunomik, giponomik, partonomik munosabatlar ana shunday insoniy munosabatdir. Leksik ma'no guruhlari markazidagi leksemalar o'zaro qanday munosabatlar turishini ko'rib o'tishimiz diqqatga sazovor hisoblanadi.

Jahon tilshunosligida leksemalararo munosabatlari asosan, ma'no qisman jins-turlilik munosabatlarni o'rganish bilan cheklangan.

O'zbek tilshunosligida esa bu sohada yana peshqamlik qilyapti. O'zbek tilidagi leksek ma'no guruh markaziylaragi orasidagi ma'no aloqalarining o'rganishi (graduonomiya), jinstur (giponomik), butun-bo'lak(partonomik) kabi ma'no munosabatlarini ajratish mumkinligini ko'rsatdi.

Bu munosabatlar asosida leksik ma'no guruhlarning tashkil topish xususiyatlari esa hali umuman o'rganilmagan. Gradunomiya-leksemalarning ma'no guruhlari a'zolarida u yoki bu belgining darajalanishi. Gradunomiya hodisasini o'z vaqtida Alisher Navoiy ham payqagan va uning tarkiy (o'zbek) uning boylik ko'rsatgichlaridan biri sifatida izohlagan edi. U o'zining «Muhokamatul-lug'atayn» asarida «yig'lamoq» ma'noli so'zlar guruhini ayni shu darajalanish aspektida talqin qiladi: yig'lama, sinmoq, ingramoq-singramoq.

Demak Alisher Navoiy shu hodisaning ilk tadqiqotchisi desak bo'ladi. Keyingi 20-30- yil ichida o'zbek tilshunosligida bu masalada alohida e'tibor berilmoqda. Leksemalarning ma'no munosabatlarida darajalanish xodisaning o'rganilishi ko'p jihatdan muhim hisoblanadi.

Masalan: 1) lug'at bajligining tizim sifatidagi tavsifini berishda. 2) lug'aviy birliklarining uslubiy vosita(stilistik figura) sifatida qiymatini belgilashda gradunomik taqiqotlar natijasidan foydalanish mumkin.

Gradunomiya- lug'aviy darajalanish. Lug'aviy birliklarning o'zaro ma'noviy munosabatiga ko'ra ma'lum bir darajalanishi qatorida hosil etishi fanga qadimdan ma'lum va uning eng yorqin namunasi «o'rta» so'zini o'z ichiga olgan so'zlar qatoridir. Masalan : *katta-o'rta-kichik, yosh-o'rta-qari, uzoq-o'rta-yaqin, uzun-o'rta-qisqa*.

Ma'lumki, o'rta so'zi ifodalangan ma'noda o'rtalik, oraliq, ya'ni ikki bir -biriga zid belgi oralig'idagi holatni ko'rsatadi. O'rta leksemasi antonimlar oralig'ida o'rin olsa (*katta-o'rta—kichik*) darajalanish kam seziladi.

Lekin o'rta leksemali birliklarni zid belgilari asosida emas, ma'lum bir belgining kamayishi yoki o'sishi asosida idrok etilsa, ma'noviy darajalanish yaqqol anglashiladi.

INTEGRATION OF PRAGMALINGUISTICS, FUNCTIONAL TRANSLATION STUDIES AND LANGUAGE TEACHING PROCESSES

Darajalanish qatori a'zolari kamida uchta bo'ladi. Darajalanish munosabatlari bilan bog'langan so'zlar qatorini 2 ga ajratishimiz mumkin.

G'ayrilisoniy omilning mohiyatidagi .borliqdagi narsa- belgi xususiyatlari sifat farqlari bilan birga miqdor farqlari ham mavjud: inson- go'daklik- yoshlik- navqironlik yetuklik- qarilik. O'simlik: navnihollik- ko'chatlik-yetilganlik- qariganlik davrlarni boshidan kechiradi- organizm o'sadi.

Gradunomik lug'aviy qatorlarni ajratishning lisoniy omillari quyidagilar: a) ma'noviy omil b) so'zlaro paradigmatic munosabatlar. Gradunomik qatorlarni ajratishdagi ma'noviy omilning mohiyati shundaki, bir qator leksemalar sememalarda ma'lum bir belgining ozko'pligi, turli xil darajalarida ishora mavjud. Masalan : *darcha—eshik-darvoza* leksemalarni tahlil qilamiz.

1. Darcha- ilgari vaqtarda dereza vazifasini o'tagan bir yoki qo'sh tavaqli eshik yoki devorga o'rnatilgan kichik eshikcha (UTIL 1,2,12)
 2. Eshik: - uy,xona. Bino,xovlining kiraverishida o'rnatilgan ochib-yopib turiladigan moslama .
 3. Darvoza:- hovli. Qo'rg'on, qal'a,zavod va shu kabilarga kiriladigan ochib-yopiladigan katta eshik,qopga.

Demak, lug'aviy graduonimik qatorlarni ajratish uchun ma'naviy omil o'zaro yaqin tushunchalarni ifodalovchi leksemalar sirasidagi har bir leksemada ma'lum bir belgining turlicha darajalanishiga ishora mavjudligida namoyon bo'ladi. Shu asosida ma'naviy omilning o'zini ikkiga bo'lamiz.

- 1)bir-biriga yaqin va o'xshash tushunchalar ifodalanishi.
 - 2)Ayni bir belgining turli xil miqdoriga ishorat.
 - 3)Giponimiya-tur-jins munosabati. Leksemalararo semantic munosabatlarning yana bir turi giponimiya (aniqrog'i, gipo—giperonimiya), ya'ni tur- jins munosabatidir.

Giponimiya munosabatda giperonim (jins) va gaponim (tur) farqlanadi. Giponimiya jins belgisini bildirgan predmetning nomini ifodalovchi ko'pgina ma'nolarni semantik jihatdan umumlashtiruvchi mikrotizimning markaziy leksemasi, dominantasi sifatida nomoyon bo'lувчи lug'aviy birlikdir. Giponim esa ma'lum jins turlarining nomlarini hamda o'zining semantik tarkibida implicit tarzda jins ma'nosini ham ifodalovchi, semantik jihatdan giperonimga nisbatan boy bo'lgan lug'aviy birlikdir.

Giponimlar teng huquqli bo'lib, ularning giponimga munosabati bir xildir. O'z navbatida ,bu munosabat polisemiya va omonimiya hodisalari bilan ham bog'lanadi. Masalan,o'zbek tilidagi daraxt nomlari dastlab ikki guruhga bo'linadi: mevali daraxtlar va manzarali daraxtlar. Mevali daraxtlar o'z mevasining nomi bilan ataladi. Shuning uchun bu leksemalar ko'p ma'noli bo'lganligi bois bir tomondan meva , ikkinchi tomondan daraxt.

Partonimiya –butun –bo'lak munosabati. Borliqdagi barcha ashyolar- narsa,predmet, buyum butunlik ekan, albatta, ular tarkibiy qismlarga bo'linadi. Tarkibiy murakkablik, bo'laklarga bo'linuvchanlik borliq ashyorlarining umumiyligini qurilish qonuniyati ekan, bu qonuniyat ong orqali lisonda o'z aksini topishi shart va zarur. Misol sifatida "odam" butunligini olaylik. Odam bir butunlik sifatida qabul qilinadi, lekin uning tana a'zolarini alohida-alohida ismlar bilan atashga ehtiyoj seziladi. Butunni lisoniy "bo'lish" ijtimoiy zaruriyat taqozasidir. Butunning bo'laklari ijtimoiy qiymqt kasb etsa, u umumiste'mol so'zlari bilan

INTEGRATION OF PRAGMALINGUISTICS, FUNCTIONAL TRANSLATION STUDIES AND LANGUAGE TEACHING PROCESSES

nomlanadi.Lisoniy va tibbiy “bo’lish” farqlanadi. Tibbiy bo’linishda inson tanasining o’n mingga yaqin a’zosi, bo’lagi ajratiladi. Lekin “O’zbek tilining izohli lug’ati” da odam va mol tanasi a’zolarini atovchi 103 ta leksema mavjud. Demak, lug’aviy atovchisiz boshqa a’zolarning ajratilishi ijtimoiy emas, balki tor-tibbiy ahamiyatga ega.

Ma’lumki, ob’ektiv borliqdagi ashyolar orasida butun-bo’lak munosabatlari pog’onalidir. Ko’rinadiki, hovli borliq voqeliga sifatida cheksiz bo’laklanishi mumkin. Har bir quiyi pog’ona yuqori pog’ona uchun bo’lakdir. Voqealikdagi bunday bo’linish tilda LMGlarni tashkil etganda o’z aksini topadi. Butun dastlab shu butunning bo’laklariga , bu bo’laklar butun sifatida boshqa bo’laklarga , bu bo’laklar yangi butunlik sifatida yangi bo’laklarga cheksiz ravishda bo’linib ketaveradi.. Leksemalarning partonimik LMG larida ham shunday bo’linish voqealanadi. Demak partonimik LMG lar ob’ektiv borliqdagi butunbo’lak pog’onali bo’linishi aks etgargan holda tuziladi. Masalan, odam totonimining partonimlari bosh ,tana, ko’z .oyoq kabi to’rtlikdan iborat. Turnoq barmoqning , barmoq qo’lining, ko’z esa odamning partonimidir. Odam LMG siga tirnoqham, barmoq ham kirmaydi.

1. Partonimlar orasida paradikma a’zolariga qo’yiladigan eslatish,,o’xshash lik munosabatlari mavjud.
2. Partonimik qatorda dominanta leksema bo’lib, u partonimlarni o’z tevaragida to’plab yuqori butunlikka esa uning o’zi kiradi.
3. Partonimik LMG lar doim ochiqdir.

Birinchidan; partonimik lug’aviy paradikmadagi istalgan leksema o’zining sinonimik ,graduonimik,giponimik qatorlariga ega bo’lishi mumkin va nutq sharoitiga ko’ra o’zi mansub:LMG tarkibiga sinonim,giponim,graduonim larini olib kiradi Masalan: bosh leksemasi o’rnida kalla leksemasi LMG dan joy olish ham mumkin

Ikkinchidan: jamiyat taraqqiyoti natijasida butunning ijtimoiy ahamiyatga ega bo’lgan yangi –yangi qismlari ochilib va nomlanib boradi.

Uchinchidan: partonimik lug’aviy paradikmada leksemalar miqdori ularning shakli nisbiy erkinlikka ega . Masalan: kalla leksemasining salbiy ma’nosи ta’kidlansa ham, bosh va kalla leksemalaridan qaysi bir dominant ekanligini ochiq qytish qiyin.

Partonimiyaning lisoniy hodisa ekanligini isbotlovchi asos, dalil totonim va partonim orasida semik bog’lanishning mavjudligida . Buning uchun bitta totonim va uning bir partonimi semant munosabatini qiyoslab ko’raylik :**odam**–“**ongi** tirik mavjudod” Semalar “mavjudod”,“tirik, ongli ”**Bosh** –odam gavdasining yuqori qismi.

Semalari:”yuqori qism”,”gavdaga tegishli ”,”odamga xos”, .Ko’rinadiki totonim (odam) ning sememasni uning partonimida sema darajasiga kichrayib namoyon bo’ladi. Yuqorida keltirilganlarning barchasi partonimik lug’aviy paradigmanning lison tabiatliligini ko’rsatadi.

ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Alisher Navoiy Mukammal asarlar to’plami.Yigirma toqli....16-tom-T. O’qituvchi;1995 yil 17.,108-110
1. 2.Orifjonova SH,O’zbek tilida lig’aviy graduonimiya NDA-T 1936
2. 3.Safarova R. “Hozirgi adabiy tili”-Toshkent,2010,33-bet

INTEGRATION OF PRAGMALINGUISTICS, FUNCTIONAL TRANSLATION STUDIES AND LANGUAGE TEACHING PROCESSES

3. 4. Jamolxonov H “Hozirgi o’zbek adabiy tili – Toshkent,Talqin-207,272-bet.
4. Kilichev, B. E. (2021). BUKHARA REGION’S TYPICAL TOPOONYMS TRANSFORMED BY MEANS THE NAMES OF NATIONS. *Theoretical & Applied Science*, (2), 43-46. https://uniwork.buxdu.uz/resurs/12833_1_24120FA69B3741245920CCB0974139C802AA52B8.pdf.
5. Kilichev, B. E., & Safarova, M. Z. (2021). Toponyms formed on the basis of nation names. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT) ISSN*, 2509-0119.
6. Askarovich, H. A. (2022, January). So’z Ma’nolari Intensivligi. In *Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes* (pp. 13-15).. <https://www.conferenceseries.info/index.php/online/article/view/29>.
7. Haydarov, A. A. (2019). METHODOLOGICAL FEATURES OF IMITATION WORDS. *Theoretical & Applied Science*, (10), 688-690. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=41328966>.
8. Kilichev, B. E. A Way of Making Words on Proper Nouns. *International Journal on Integrated Education*, 3(2), 96-98. <https://media.neliti.com/media/publications/333098-a-way-of-making-words-on-proper-nouns-08e83e0e.pdf>.
9. Kilichev, B. (2021). O ‘ZBEK ERTAKLARIDAGI ANTROPONIMLARINING LINGVOMADANIY ASOSLARI: Bayramali Kilichev BuxDU o ‘zbek tilshunosligi kafedrasи dotsenti Sharofiddin Rahmatullayev BuxDU o ‘zbek tilshunosligi kafedrasи o ‘qituvchisi. In *Научно-практическая конференция*. <https://interscience.uz/index.php/zamonaviy-fan-va-talim-tarbiya-m/article/view/284>.
10. Khudoyberdievna, S. Z. (2022). THE MAIN FEATURES OF TRANSLATION OF PHRASEOLOGY FROM ENGLISH INTO UZBEK. *Scientific Impulse*, 1(3), 523-526. <https://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/1024>.
11. Saidova, Z. (2021). ADVANTAGES AND DISADVANTAGES OF MODULAR OBJECT-ORIENTED DYNAMIC LEARNING ENVIRONMENT (MOODLE) IN THE SYSTEM OF EDUCATION. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 8(8). http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/4352.
12. Khudoyberdievna, S. Z. (2022). Modern Methods of Translating Phraseological Units. *Eurasian Research Bulletin*, 4, 153-158. <https://geniusjournals.org/index.php/erb/article/view/516>.
13. Расулов, З. И. (2010). Принцип материала английского языка 94.
14. Izomovich, R. Z., & Fazliddinovna, U. D. (2022). INFLUENCE OF ORTHOGRAPHY IN TEACHING ENGLISH AND SECOND LANGUAGE ACQUISITION. *Thematics Journal of Applied Sciences*, 6(1). <https://thematicsjournals.in/index.php/tjas/article/view/988>.